

“O‘TKAN KUNLAR” ROMANIDA QO‘LLANGAN ETNOGRAFIZMLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Dilmurod Ahmadaliyevich Ashurov,
University of Business and Science oliy ta’lim muassasasi v.b. dotsenti, PhD.
Gmail: dilmurodhoji@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida qo‘llangan suyunchi, ko‘rmana va vakil etnografizmlari haqida so‘z yuritiladi. Suyunchi, ko‘rmana va vakil etnografizmlarining lingvomadaniy jihatlariga alohida e’tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *etnolingvistika, milliy qadriyat, milliy urf-odatlar, til va madaniyat, lingvokulturologik birliklar, etnografizm, lingvokulturologiya.*

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ЭТНОГРАФИЗМОВ, ИСПОЛЬЗОВАННЫХ В РОМАНЕ «МИНУВШИЕ ДНИ»

Ашуров Дилмурод Ахмадалиевич,
И.о. доцента высшего образовательного учреждения University of Business
and Science, PhD.
Gmail: dilmurodhoji@gmail.com

Аннотация. *В этой статье рассказывается об этнографизмах суюнчи, Курмана и Вакил, использованных Абдуллой Кадыри в романе “Минувшие дни”. Особое внимание уделяется лингвокультурным аспектам этнографизмов суюнчи, Курмана и Вакил.*

Ключевые слова: *этнолингвистика, национальная ценность, национальные традиции, язык и культура, лингвокультурологические единицы, этнографизм, лингвокультурология.*

LINGUOCULTURAL FEATURES OF ETHNOGRAPHISMS USED IN THE NOVEL "DAYS GONE BY"

Dilmurod Akhmadalievich Ashurov,

Acting Associate Professor of the University of Business and Science, PhD.

Gmail: dilmurodxoji@gmail.com

Annotation. *This article discusses the ethnographisms "suyunchi," "ko'rmana," and "vakil" used in Abdulla Qodiriy's novel "Days Gone By." Special attention is given to the linguocultural aspects of these ethnographisms.*

Keywords: *ethnolinguistics, national values, national customs, language and culture, linguocultural units, ethnographism, linguoculturology.*

Kirish

Har bir xalqning madaniyatidagi mental jihatlar tarixiy taraqqiyoti davomida shakllanishi tabiiy. Milliy qadriyatlar, millatga xos belgi va xususiyatlar uning tilida, aniqrog'i, etnografizmlarida saqlanganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Etnografizmlar va ularning ilmiy-nazariy qirralarini o'rganish, monografik tarzda tadqiq qilish milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarni asrab-avaylab, kelajak vorislariga etkazishda tarixiy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili

Etnografizmlarni o'rganish tilshunoslik, etnografiya, folklorshunoslik, arxeologiya va madaniyatshunoslik fanlari hamkorligida amalga oshirilgandagina kutilgan natijalarga to'laqonli erishiladi.

Etnolingvistikani tilning madaniyat, milliy urf-odatlar, jamiyatning ijtimoiy tuzilishi bilan aloqalarini o'rganuvchi yo'nalishi sifatidagi V.A.Zveginsev tavsifiga to'la qo'shilish mumkin. Zamonaviy etnolingvistikaning e'tibor markazida muayyan moddiy yoki madaniy-tarixiy kompleks (yig'indi)larga oid til leksik tizimi elementlari turadi [11, 10]. Madaniyat shakllari, marosimlar, an'analarning ma'lum hududga oid butun bir to'plamini tadqiq etar ekanlar, bu to'plam esa boshqa hudud to'plamlari bilan birgalikda o'zaro aloqador tizimni tashkil etishi

tabiiydir. V.A.Maslova rus tilshunosligidagi tadqiqotlarning asosiy ikkita tarmog'ini ajratib ko'rsatadi: 1) lisoniy jihatdan etnik hududni qayta tiklash (R.A.Agaeva, S.B.Bernshteyn V.V.Ivanov, T.V.Gamkrelidze ishlarida); 2) mazkur til bo'yicha xalqning moddiy va ma'naviy madaniyatini tiklash (V.V.Ivanov, V.N.Toporov, T.V.Sivyan, T.M.Sudnik, N.I.Tolstoy va uning maktabi tadqiqotlari) [11, 10]. O'zbek tilshunosligida etnolingvistika dialektologiya fani bag'rida yuzaga kelgan bo'lib, A.Shermatov, B.Jo'rayev, D.Abdurahmonov, K.Usmonov, T.Nafasov, N.Mirzayev, Q.Xurramovlarning dialektologiyaga oid tadqiqotlarida [18,4,5] tamal toshi qo'yilgan bo'lsa, N.Mirzayevning "O'zbek tili etnografizmlarining izohli lug'ati" alohida diqqatga sazovor. Lug'atda Qashqadaryo o'zbek shevalari materiallari diqqat markazida bo'lsa-da, bu o'zbek etnografizmlarini tizimli o'rganish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. Keyingi yillarda o'zbek tili etnografizmlari turli jihatdan folklor yo'nalishida [3,6,7,10,14,15], tilshunoslik nuqtayi nazaridan [9,13,17,18], tarjimashunoslik jihatidan [8], xususan, lingvokulturologik aspektida [2] keng o'rganilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Mavzuni yoritishda tavsiflash, qiyoslash va lingvokulturologik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Maqolada Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida qo'llangan *suyunchi*, *ko'rmana* va *vakil* etnografizmlari haqida so'z yuritiladi.

Romanda millatimizning yuz yillik madaniyati tarixidan xabar beruvchi qadriyatlar jamlanganki, ularni lingvokulturologik yondashuv asosida o'rganish hali ochilmagan nuqtalarni topish imkonini beradi. Etnografizmlarning lingvokulturologik tomonlariga e'tibor qaratish, til va madaniyat uyg'unligida tekshirish esa xalq madaniyatining asl mohiyatini ochish yo'l ochadi. Romanda o'zbek xalqiga oid *suyunchi*, *unashtirish*, *kelin*, *kuyov*, *ko'rmana*, *qaynona*, *qaynota*, *quda*, *qudachi*, *vakil*, *mahr*, *chilla* kabi bir nechta etnografizmlar qo'llangan bo'lib, ko'pgina etnografizmlar hozirgi kungacha saqlanib qolgan.

Ularning asl holida saqlanib qolishiga asarlar tarkibida qo'llanilganligini ham bir sabab sifatida ko'rsatish mumkin.

Turkiy xalqlarning ko'pchiligida *suyunchi* bilan bog'liq an'analar uchraydi. Qozoq, qoraqalpoq, o'zbek xalqlarining barchasida ham suyunchining miqdori katta bo'lganligi, qadimgi davrlardan ham ular quvonchdan molini ayashmaganligi aytib o'tiladi [2;12].

Romanning bir nechta o'rinlarida suyunchi etnografizmini uchratish mumkin. Asarning "Qudalarni kutib olish" faslida suyunchidan kutilgan yaxshi xabarni – mehmonlarning kelayotganligini etkazish uchun foydalanilgan:

"O'zbek oyim o'rta eshikka borib yetmagan ham edi, narigi yoqdan qo'shnining bolasi yugirib kirib qoldi.

— So'yinchi bering, bek buvi, kennoyim keldila! O'zbek oyim cho'nchagiga qo'lini solib besh-o'n pul olib berdi. Bola orqasidan Xasanali ko'rindi:

— Qani oyi, ko'rmanani bering-chi, men sizning qochqoq kelingizni tutib keldim! - dedi va yo'lakka qarab: — To'xtang, to'xtang, ilgari men so'yinchimni undirib olay" [1;312].

Bu o'rinda *suyunchi* etnografizmini ijro etuvchi sifatida yosh bola, u ham bo'lsa qo'shnining bolasi tanlanganligi bejiz emas. Bu bilan adib yosh bolalardagi beg'uborlik, o'zgalarni hursand qilishga oshiqish hamda evaziga hadya olishga qiziqish kabi hihatlarni jamlagan. Matndan o'zbek xalqiga xos yaxshi qo'ni-qo'shnichilik aloqalari mavjudligi ham seziladi. Qadimdan hozirgi kunga qadar quvonchli xabar yetkazgan insonga suyunchi sifatida pul yoki ma'lum bir qiymatga ega buyum berish odati saqlangan. Matnda mana shunga ishora bor: *"— So'yinchi bering, bek buvi, kennoyim keldila! O'zbek oyim cho'nchagiga qo'lini solib besh-o'n pul olib berdi."* Suyunchi leksemasi, avvalo, kishida milliy va madaniy qadriyat sifatida tasavvur uyg'otadi, u orqali "saxiy", "mehmondo'st", "mard", "o'z xursandchiligini baham ko'ruvchi" kabi assotsiatsiyalarda milliy-madaniy semalar yuzaga chiqadi. Demak, har qanday quvonchli xabar yetkazilishi uchun suyunchi so'rash va olish o'zbek milliy madaniyatining belgisi sifatida tushunilishi mumkin. Matnda *suyunchi* ikki holatda

namoyon bo‘ladi: birinchi holatda suyunchi so‘rovchi kutilayotgan muhim xabarni yetkazganligi uchun tinglovchidan nimadir umid qiladi, shuning uchun adib bu o‘rinda *boladan* foydalanmoqda, ikkinchi holatda esa suyunchi so‘rovchi eshituvchidan biror narsa kutmaydi, shunchaki hursandchiligini o‘zgalar bilan baham ko‘radi. Bunda suyunchi so‘ragan kishiga hech narsa berilmaydi. Bu holat Hasanali nutqida sezilib turibdi. Matnda *suyunchi* bilan birga yana bir *ko‘rmana* etnografizmi qo‘llanmoqda. “Ko‘rmana – kelin yoki yangi tug‘ilgan bolani birinchi marta ko‘rishda yaqin kishilar, qarindosh-urug‘lar tomonidan beriladigan sovg‘a”[16;468] bo‘lib, hozirgi kunda ham faol qo‘llanib kelinadi.

Romanda chaqaloq tug‘ilishi bilan bog‘liq xursandchilik quyidagicha ifodalanadi: “*Oradan ko‘b fursat o‘tmadi, ichkaridan Oybodoq yugurib chiqdi va darichadan turib “so‘yinchil!” dedi. Hoji yonchig‘ini kavlay berib “alhamdulillah” deb qo‘ydi. Hasanali ham iljayib yonchiq kavlashka tutindi va:*

— *O‘g‘ulmi, holva? — deb so‘radi xotinidan.*

— *O‘g‘ul!*

— *Barakalla.*

Hoji kulimsirab qo‘lidag‘i uch-to‘rtta oq tanga bilan bitta tillani Oybodoqqa uzatdi — “Tangalarni o‘zing ol, tillani doychaga ber!” dedi. Hasanali so‘yinchisini topshirg‘andan so‘ng duog‘a qo‘l ochdi: “Olloh taolo umri bilan bergan bo‘lsin”. Shundan keyin xotirjam bo‘lg‘an holda xuftanga ketdilar” [1;369].

Farzand Allohning ne‘mati. Shuning uchun chaqaloqning dunyoga kelishi barcha uchun quvonchli hol. Bu holat, o‘zbek madaniyatida o‘zgacha hursandchilik bilan qarshi olinadi. Parchadan anglashilmoqdaki, Oybodoq quvonchli xabarni tezroq ulashish maqsadida adib ta‘biri bilan aytganda “*yugurib chiqdi va darichadan turib “so‘yinchil!” dedi. Bu o‘rinda Qodiriy o‘zbeklarga xos hursandchiligini yashira olmaslik, yangilikni boshqalar bilan baham ko‘rish, shoshqaloqlik kabi xususiyatlar mavjudligini ko‘rsatadi. Chaqaloq tug‘ilganligi xabarini birinchi bor yetkazgan odamga suyunchi berish odati qadimgi davrlarda ham mavjud bo‘lgan. O‘zbek xalqining ming yillik madaniyati haqida so‘zlovchi*

“Alpomish” dostonining Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li variantida farzandli bo‘lgan Boybo‘ri va Boysari suyunchiga ot va tuyalar berganligi aytib o‘tiladi: *“Oradan to‘qqiz oy, to‘qkiz kun, to‘qqiz soat o‘tdi, ikkovi ham bir oqshomda er yuziga keldi... Ular suyunganidan bir-biriga suyunchixo‘r yuborib, suyunchiga kelgan kishiga ot va tuyalar berib, besh kundan beshik to‘yi qildi”* [20;16]. “O‘tkan kunlar”da ham suyunchi berish va olish an‘anasi saqlanganligini yuqoridagi misolda ko‘rishimiz mumkin. E‘tibor bering, suyunchi berilganda insonning sahiyligi yana ham ortadi. Adib bu masalaga ham alohida e‘tibor qaratmoqda *“Hoji kulimsirab qo‘lidag‘i uch-to‘rtta oq tanga bilan bitta tillani Oybodoqqa uzatdi — “Tangalarni o‘zing ol, tillani doyachaga ber!”* [1;370]. Suyunchi so‘rovchi eshitguvchidan aniq bir miqdorni kutmayotgan bo‘lsa-da, Yusufbek xoji Oybadoqqa *“oq tanga bilan bitta tillani”*ni bermoqda. Yoki Hasanalining qul bo‘lishiga qaramay suyunchi berayotganligi orqali o‘zbeklarga xos sahiylik, qo‘li ochiqlik, hotamtoylik kabi ijobiy xislatlar ko‘rsatilmoqda. Yusufbek xojining Oybodoqqa qarata *“Tangalarni o‘zing ol, tillani doyachaga ber!”* deyishida esa doyalarga bo‘lgan hurmat, ular mehnatini qadrlash masalasi ham chiroyli ochib berilgan. Bundan tashqari bola tug‘ilganligi haqidagi xabar eshitgan har qanday kishi chaqaloqni duo qilishi odatga aylanganligi ham yaqqol ko‘rsatib o‘tilgan.

Chaqaloq tug‘ilganligi haqidagi xabarni yetkazganlik uchun suyunchi berish odati borligi haqida yuqorida aytiladi. O‘zbek madaniyatida chaqaloqning sog‘-omon tug‘ilganligi sharofati bilan uning tug‘ilish vaqtida hozir bo‘lgan shaxslarga ham minnatdorlik sifatida ma‘lum bir in‘omlar berilgan. Yoki chaqaloqning otasi tomonidan qaynona va onasiga ham suyunchi berish odati mavjudligi asarda berib o‘tiladi: *“Otabek onasig‘a bir tilla so‘yinchil bergandan so‘ng xotirjam‘lik bilan uydan chiqdi”* [1;373].

O‘zbek madaniyatida vakil deb nomlangan etnografizm ham borki, uni ham lingvomadaniy jihatlariga to‘xtalib o‘tish zarur. *“Mehmonxona ayvonida oq soqolliq, ko‘rkam siymo va og‘ir tabi‘atlik domla bilan Ziyo shohichi, Hasanali, qiz vakili va tag‘in bir necha kishilar o‘lturadilar. Yigitlar kuyavni domlalar qarshisig‘a kelturib to‘xtatqandan keyin Otabek vakili bo‘lg‘an Ziyo shohichi*

bilan Kumush qiz vakili Muhammadrahim oralarida mahr masalasi ochiladir” [1;58]. Ushbu keltirilgan parchada vakil – guvoh haqida so‘z boradi. Nikoh xutbasi o‘qilib, kelin-kuyovdan rozilik so‘ralayotganda, albatta, vakil tayinlanadi.

Vakil – nikoh marosimida, nikoh oyatini o‘qiyotganda yigitning qizga uylanishiga rozi ekanligiga, nikoh talablariga rozi ekanligiga guvoh o‘tuvchi kishi [12;22]. Nutqimizda *o‘kil*, *karota* deb ham aytish holatlari uchraydi. Domla vakillar orqali kelinning bu nikohga roziligini so‘raydi, vakillar mahr shartlari bajarilganligiga ham guvoh bo‘ladilar.

Qudalar ko‘p hollarda bir-biridan andisha qilishganligi uchun o‘zlaridan vakil qo‘yishgan. Vakil kuyov tomonning kelinga beriladigan mol-mulki va shu kabilar muhokamasida, keyingi oilaviy munosabatlarda ham qatnashgan. Uning so‘ziga quloq osishgan, unga nisbatan vakil otaga qiz otasi sifatida hurmat ko‘rsatilgan.

Vakil etnografizmi quyidagi milliy-madaniy semalarda namoyon bo‘ladi:

1. Vakil – guvoh.
2. Vakil – otadek hurmatli.
3. Vakil – kelin-kuyovning yaxshi yashab ketishlari uchun mas’ul shaxs.
4. Nikoh shar’iyligini ta’minlovchi.
5. Vakil – qudalar o‘rtasidagi ko‘prik.

Uyatchanlik, andisha o‘zbek qizlariga xos xislatlar o‘zbek nikoh to‘ylarida o‘tkaziladigan *“qiz so‘ylatar”* etnografizmida yaqqol namoyon bo‘ladi. Biroq bu etnografizm haqida romanda biror gap aytilmagan. Domla qizdan uchinchi marotaba so‘raganidagina vakillar ko‘magida qiz o‘z roziligini past ovozda yoki paralingvistik vositalar orqali bildiradi. Bu etnografizm orqali *“andisha”*, *“uyat”*, *“nomus”* kabi milliy-madaniy semalar yuzaga chiqadi.

Xulosalar

Asarda bir xalq misolida ko‘plab etnografizmlar jamlangan. Bu etnografizmlar nafaqat o‘zbek millatining, balki qardosh xalqlarning ham mushtarak urf-odatlari bo‘lishi tabiiy. Chunki qadimdan ham qo‘shni davlatlar bilan quda-andachilik, qarindosh-urug‘chilik an‘analari saqlangan. Faqatgina

bunday etnografizmlarning nomlanishi hamda o'tkazilishi bilan bog'liq farqlar uchrashi mumkin. Etnografizmlarda xalqning milliy qadriyatlari, urf-odat va marosimlari, milliy tili, milliy xarakteri, mentaliteti, bir so'z bilan aytganda, xalq madaniyati to'laqonli aks etadi. Shuning bilan birgalikda, millat madaniyati etnografizmlar orqali avloddan-avlodga meros sifatida o'tib keladi. Xalq madaniyatini etnografizmlar orqali o'rganish esa o'sha xalq haqida to'g'ri xulosalar chiqarishga asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. – Toshkent: Sharq, 2004. – B. 372.
2. Адилова Г.А. Қорақалпоғистон қозоқлари этнографизмларининг лингвوماданий таҳлили: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Нукус, 2018. – 52 б.
3. Давлатов С.Х. Қашқадарё воҳаси ўзбек тўй маросимлари фольклори: Филол. фан. номз. ... дис. – Тошкент, 1996. – 22 б.
4. Жўраев Б. Шахриябский говор узбекского языка. – Ташкент, 1964.
5. Нафасов Т. Жанубий Ўзбекистон топонимиясининг этнолингвистик анализи. – Тошкент, 1985. – 206 б.
6. Жўраев М. Ўзбек маросим фольклори. – Тошкент: Фан, 2008. – 291 б.
7. Исмонова О.О. Ўзбек тўй маросим фольклорида «келин салом» жанри (генезиси, ўзига хос хусусиятлари ва поэтикаси): Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1999. – 26 б.
8. Касимова Р.Р. Ўзбек тўй ва мотам маросим фольклори матнларининг инглизча таржимасида этнографизмларнинг берилиши: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 48 б.
9. Кахарова М.М. Ўзбек этнографизмларининг системавий тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 23 б.
10. Қуронбоева Н.Р. Хоразм тўй қўшиқлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 23 б.

11. Маслова В.А. Лингвокультурология. Учебное пособие. 4-е изд. – Москва: Академия, 2010. – С. 10.

12. Мирзаев Н. Ўзбек тили этнографизмларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 22.

13. Мирзаев Н. Ўзбек тилининг этнографик лексикаси (Қашқадарё ўзбек шевалари материаллари асосида): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1971. – 22 б.

14. Муродова М.Ш. Ўзбек никоҳ тўйи фольклорининг жанрлар таркиби ва бадиияти (Ўрта Зарафшон воҳаси материаллари асосида): Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 55 б.

15. Норбутаев П.П. Отражение в народных эпосах этнических особенностей узбеков Кашкадарьинского оазиса (на примере дастанов «Алпамыш» и «Ёзи и Зебо»): Автореф. дисс. ... канд. истор. наук. – Ташкент, 2010. – 27 б.

16. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 2-жилд. – 468 б.

17. Хонхўжаева А.С. Тожик тилининг тўй ва мотам маросимларига оид этнографик лексикаси (Самарқанд лаҳжаси асосида): Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. – 50 б.

18. Ҳайитова Ф.Б. Никоҳ тўйи қўшиқларининг лисоний талқини: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 24 б.

19. Шерматов А. Из опыта картографирования узбекских говоров Низовья Кашкадарьи // VII региональная конференция по диалектологии языков. – Алма-Ата, 1973. – С. 489.

20. Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. 100 жилдлик. 10-жилд. Алпомиш. (Бекмурод Жўрабой ўғлидан ёзиб олинган). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016. – 503 б.